



FORMATION OF PROFESSIONAL SELF-AWARENESS OF LAW STUDENTS

Daniyor Oltinboyev

Lecturer

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

E-mail: oltinboyevd@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: legal education, legal consciousness, awareness, professional competence, psychology, situation, analysis, ability, skill, legal assessment, decision-making, efficiency.

Received: 18.03.25

Accepted: 20.03.25

Published: 22.03.25

Abstract: Ensuring the quality of legal education and the legalization of non-legal sciences, the culture of legal education, the qualification of legal personnel, the regulation of professional self-awareness, the reflection of legal reality, behavior regulation, knowledge of emotional reactions, self-management, professional production, mastering sources and means of information, integrated learning, personality psychology and social psychology, self-esteem, self-analysis, self-control, self-management of actions, implementation of professional actions. gets down to business.

HUQUQSHUNOSLIK YO‘NALISHI TALABALARININQ KASBIY O‘Z-O‘ZINI ANGLASHINI SHAKLLANTIRISH

Doniyor Oltinboyev

o‘qituvchi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O‘zbekiston

E-mail: oltinboyevd@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: huquqiy ta‘lim, huquqiy ong, anglash, kasbiy malaka, psihologiya, vaziyat, tahlil, qobiliyat, ko‘nikma, huquqiy baho, qaror qilish, samaradorlik.

Annotatsiya: Huquqiy ta‘lim sifatini ta‘minlash, huquqiy va nohuquqiy fanlar ni muvofiqlashtirish, huquqiy tarbiya huquqiy madaniyat, malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj, kasbiy o‘zini-o‘zi anglashini shakllantirish, huquqiy voqelikni aks ettirish, xulq-atvorni tartibga solish, hissiy munosabatini bilish, o‘zini-o‘zi boshqarish, kasbiy tayyorlash samaradorligi, axborot manbalari va axborotni

o'zlashtirish vositalari, integratsiyalashgan bilimlarni olish, shahs psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya, o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini-o'zi tahlil qilish, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari, kasbiy vazifalarni amalga oshirish qobiliyatini qamrab oladi.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ СТУДЕНТОВ-ЮРИСТОВ

Даниер Олтинбоев

преподаватель

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

E-mail: oltynboevd@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: юридическое образование, правосознание, осведомленность, профессиональная компетентность, психология, ситуация, анализ, способность, умение, правовая оценка, принятие решений, эффективность.	Аннотация: Обеспечение качества юридического образования и легализация неюридических наук, культура юридического образования, квалификация юридических кадров, регулирование профессионального самосознания, отражение правовой действительности, регулирование поведения, знание эмоциональных реакций, самоуправление, профессиональное производство, освоение источников и средств информации, интегрированное обучение, психология личности и социальная психология, самооценка, самоанализ, самоконтроль, самоуправление действиями, реализация профессиональных действий. берется за дело.
--	--

KIRISH

Huquqshunoslik yo'nalishi talabalarining kasbiy o'z-o'zini anglashini shakllantirish yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni taqozo etadi. Huquqiy ta'lim sifatini ta'minlashning yo'llaridan biri o'quv jarayonini takomillashtirish, o'quv reja va dasturlarini yangilash, yangi fanlarni joriy etishdan iborat. Shuningdek, huquqiy va nohuquqiy fanlar ni muvofiqlashtirishni hisobga olish kerak.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 29-aprel, PF-5987-sonli "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni[1] mamlakatimizda milliy yuridik ta'limning samaradorligini oshirishga, yuqori malakali mutaxassis-huquqshunoslarni tayyorlashga, yuridik fanni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga

qaratilgan. Avvalo, milliy yuridik ta'lim samaradorligi xususida so'nggi yillarda bir qator amaliy ishlar amalga oshirilayotgani yurtdoshlarimizda huquqiy madaniyat yuksalayotganidan dalolat bermoqda. Mazkur farmon bilan tanishib chiqarkanmiz maqsad yuridik ta'lim va fanni takomillashtirish negizida qonun ustuvorligiga erishish chinakam huquqiy davlat - yangi O'zbekistonni barpo etishdir. Bunday jamiyatni huquqiy madaniyatli, har bir hatti-harakati huquqqa asoslangan shaxslargina tashkil etishi barchamizga ma'lumdir.

Zamonaviy O'zbekistonda eng ommabop kasblardan biri huquqshunoslikdir, chunki huquqshunoslikning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Huquqiy tarbiya huquqiy madaniyatning erishilgan darajasiga, aniq tarixiy sharoitlarga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, milliy va jahon huquqiy qadriyatlarining uzviyligiga ham bog'liq.

Huquqshunos olimlar haqli ravishda ta'kidlaganidek, huquqiy ta'lim, eng avvalo, davlat, uning organlari va ularning xodimlari, jamoat birlashmalari va mehnat jamoalarining jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirishga qaratilgan maqsadli, tizimli faoliyatidir. Huquqiy ta'lim darajasini oshirish muammosini ko'rib chiqib, huquqshunoslar huquq va huquqshunoslik sohasidagi bilimlar majmuasini huquqiy ongni rivojlantirish va shaxsni huquqiy munosabatlarga tayyorlashning asosiy vositasi, deb hisoblaydilar. Binobarin, huquqiy tarbiya faoliyati huquqiy pedagogik jarayondir.

Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar nomzodi Igor Kudryavtsevning fikricha, "Bugungi kunda huquqiy ta'lim huquq subyektlaridan ma'nosiz yuksak pafos va asossiz g'oyalarga asoslangan o'zini tutishni talab qilish tamoyiliga asoslanmasligi kerak. Zamonaviy huquqiy ta'lim huquq normalari bilan xulq-atvornining uyg'unligi va o'zaro ta'siri ostida jamiyat hamda shaxsiy manfaat va ehtiyojlarni ro'yobga chiqarishni uyg'otishi va rag'batlantirishini ta'minlash kerak"[2].

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida jamiyatda huquqiy faoliyatni tartibga solish, hamda mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda, bu esa gumanitar ta'limning mohiyatini takomillashtirishni taqozo etadi. Jamiyatning ehtiyojlari mavjud universitetlar tomonidan qondirilmadi, shuning uchun universitet va institutlarda yuridik fan va amaliyot bilan bevosita bog'liq bo'lgan kafedralar ochilmoqda, buning oqibatida esa bo'lajak yuristlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini takomillashtirish, huquqshunos mutaxassisning kasbiy fazilatlarini shakllantirish masalasi yuzaga chiqadi.

Huquqshunos mutaxassisning shakllanishi butun kasbiy faoliyat davomida sodir bo'ladi, ammo universitetda o'qish davomida keyinchalik muvaffaqiyatli kasbiy o'zini-o'zi anglashni amalga oshirishni ta'minlaydigan poydevor qo'yiladi. Sifatli ta'lim natijasi universitetning ta'lim faoliyati sifati va ta'lim tizimini demokratlashtirish, modernizatsiya qilish va uni boshqarishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi.

Barcha o'zgarishlarning uslubiy asosi kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'lib, u yuridik fakultetdagi o'quv jarayonining mazmunini integratsiya, universallik va yaxlitlik tamoyillari asosida moslashtirishni o'z ichiga oladi. Ya'ni, fanlararo integratsiya, universitet o'qituvchilaridan keng insonparvarlik tafakkurini rivojlantirish va eskicha uslubda dars o'tish ta'sirini bartaraf etish, yangicha o'qitish vositalarini izlashni talab qiladi, bu esa talabalar-bo'lajak huquqshunoslarining kasbiy o'zini-o'zi anglashini shakllantirmasdan mumkin emas.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuridik mutaxassislarni kasbiy tayyorlash muammosi turli jihatlarida ko'rib chiqilgan: kasbiy tayyorlik va muvofiqlik (V.M.Kroz, A.E.Jalinskiy, A.A.Rybkina va boshqalar); kasbiy kompetentsiya (K.A. Bukalov, V.A. Vasilev, N.V. Eluxina, V.V. Kozhevnikov, V.V. Romanov va boshqalar); kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy xususiyatlar (E.S. Lapshova va boshqalar); huquqshunoslarning qadriyat ongini shakllantirish vositalari (V.V.Volchkova, A.P.Komarov va boshqalar); huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya (C.JI.Degtyarev, V.N.Kartashov, A.A.Pevtsov va boshqalar).

Oliy o'quv yurtlarida huquqiy ongni shakllantirish muammosini uslubiy nuqtai nazardan nazariy tushunish "ong", "huquq", "huquqiy ong" kabi tushunchalarga ta'rif berishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, yoshlarda huquqiy ongning tuzilishini aniqlashtirish, ushbu tuzilmani tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni tavsiflash, ularni shakllantirish mezonlarini aniqlash, shuningdek, huquqiy ongni shakllantirishga yordam beradigan omillar tizimini aniqlash va tushunish kerak.

Huquqiy ongning mohiyatini ko'rib chiqishda birinchi navbatda "ong" va "qonun" tushunchalari tahliliga to'xtalib o'tish kerak. "Ong" atamasi haqiqatan ham uni va umuman inson xatti-harakatlarini o'rganadigan fanlardagi eng murakkab va bahsli atamalardan biridir.

O'rganish ob'ekti sifatida ong uzoq vaqtdan beri alohida fanlar yoki hatto bilim sohalarining tor chegaralaridan oshib, kibernetika va fizikadan antropologiya va falsafagacha bo'lgan turli fanlarning tadqiqot ob'ektiga aylandi (G.V. Akopov, J.I.C. Vygotskiy, V. Vundt, L.Vitgenshteyn, K.Xembel, Dekart, D.Davidson, A.N.Leontyev, D.Lyuis, Platon, K.Popper, S.Prest, Y. T. Pleys, G. Rayl, G. Fexner, T. Xondrich, J. Xolton, K. Yaspers va boshqalar) [3].

J.Xoltonning tematik tahlil kontseptsiyasi [4] terminologiyasidan foydalanib, shuni aytishimiz mumkinki, ong gumanitar bilimlarning ko'plab sohalarini bog'lovchi va ularning har biri bilan o'ziga xos predmet rollarini, kategorik va operativ aloqalarini shakllantiradigan "tematik yadro"ga aylandi. Turli fanlar ongning aniqlangan hodisalarining o'ziga xos doirasini, ongning ma'lum bir jihatdagi funktsiyalarini o'zlarining uslubiy konstruktsiyalaridan, ilmiy xarakterga va ishonchlilikka qo'yiladigan talablardan foydalangan holda o'rganadilar[5]. Tahlilni turli xil ong tadqiqotchilari tomonidan berilgan "ong" ta'rifini ko'rib chiqishdan boshlash mantiqiy ko'rinadi.

Ong tushunchasining eng batafsil ta'rifini L.S. Vygotskiyda topish mumkin. Uning asarlariga ko'ra, "Ong - bu alomat va ramziy vositalarning madaniy-tarixiy xususiyatiga ega bo'lgan murakkab tizimli shakllanish bo'lib, u dunyoni sub'ektga ko'rsatishning turli darajalari va shakllariga ega bo'lib, unda voqelik inson tomonidan o'zlashtirilgan ijtimoiy tajriba prizmasi orqali aks etadi". [6] Binobarin, ong har bir shaxsning individual rivojlanishi natijasi, shu jumladan, xulq-atvorda, mehnat natijalarini rejalashtirish va nazorat qilishda ixtiyoriyligni rivojlantirish, inson faoliyatiga barcha ruhiy jarayonlarni kiritishdan kelib chiqadi, deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri. L.S. Vygotskiyning bunday g'oyalari A.N. Leontyev ongni sub'ektga ochiladigan, uning o'zi, uning harakatlari va holatlari kiritilgan dunyoning rasmi deb hisoblashga asos bo'ldi. Ongni inson ruhiyatining uning faoliyatida namoyon bo'ladigan sifat xususiyatlari prizmasi orqali anglash insonning sub'ektiv voqelikka munosabatini, odamlarning ijtimoiy-tarixiy faoliyatining universal shakllari vositasida tushuntiradi. [7] Bu nuqtai nazar S.L. Rubinshteyn ongning paydo bo'lishini ijtimoiy xulq-atvor sharoitida shaxsning o'zini-o'zi anglash, o'zini-o'zi nazorat qilish va o'zini-o'zi qadrlash imkoniyati sifatida aniqladi. [8]

G.V. Akopov "Ta'limning ijtimoiy psixologiyasi" [9] asarida ongning mohiyati haqidagi turli ilmiy fikrlarni atroflicha tahlil qiladi. Ulardan ba'zilari: Ong psixologik jihatdan, shu nuqtai nazardan qaraganda, yorqin yoki qorong'i bo'lishi mumkin bo'lgan, masalan, chuqur hushidan ketish paytida bo'lgani kabi, butunlay yo'qolishi mumkin bo'lgan o'ziga xos ichki yorug'likni ifodalaydi. Shuning uchun u faqat sof rasmiy xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin; ular ongning psixologik deb ataladigan qonunlari: birlik, uzluksizlik, torlik va boshqalar bilan ifodalanadi. Ong - bu alohida ruhiy makon, "sahna" deb keltiriladi (K. Jaspers). Ongni sifatlab bo'lmaydi, chunki uning o'zi sifat - psixologik hodisa va jarayonlarning sifatidir; bu sifat ularning sub'ektga taqdim etilishida ifodalanadi. Bu sifatni ochib bo'lmaydi, u faqat mavjud yoki yo'q bo'lishi mumkin. Yuqoridagi barcha qarashlarning umumiy xususiyati ong sifatining psixologik etishmasligiga urg'u berishdir. [10]

Bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy o'zini-o'zi anglashini shakllantirish, uning mohiyati kasbiy faoliyat tizimida, kasbiy muloqot tizimida, o'z shaxsiyati tizimida o'zini-o'zi anglash bilan ifodalanadi. Bo'lajak yuristlarning kasbiy o'zini-o'zi anglashi muammosini shakllantirish va hal qilish zarurati kasbiy tayyorgarlik tizimida quyidagilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlanishi bilan bog'liq:

-ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalarida ishlash va ushbu faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo'lgan mutaxassislarni kasbiy tayyorlash;

-jamiyat hayotidagi innovatsion jarayonlar va talabalarning huquqiy ongini rivojlantirish vositalarining yetarli emasligi;

-jamiyatning biznes va fugaroviy munosabatlar sohasi uchun sifatli mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoji hamda, oliy kasbiy ta'lim tizimida huquqshunoslarning kasbiy shakllantirish bo'yicha maqsadli ishlarning etarli emasligi;

- kasbiy tayyorgarlikning nazariy asoslarini ishlab chiqish va bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy o'zini-o'zi anglash shartlarini etarli darajada bilmaslik;

- bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy o'zini-o'zi anglashini shakllantirish uchun o'quv fanlarining pedagogik salohiyati va bu salohiyatning o'quv jarayoniga etarli darajada tatbiq etilmaganligi kabilarni keltirib o'tish mumkin.

Mavjud qarama-qarshiliklarni hal qilish yo'llariniga to'htaladigan bo'lsak bular: -Nazariy jihatdan yuridik fakultetlarda o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillari asosida tashkil etish bo'lsa; - Amaliy nuqtai nazardan, bolajak huquqshunos talabalarning kasbiy o'zini-o'zi anglashini shakllantirishni ta'minlash vositalarini topish deyishimiz mumkin. [11]

Huquqshunoslik kasbi shaxsning yuqori darajadagi ijtimoiylashuvini nazarda tutadi, bu qiyin vaziyatlarda me'yoriy xatti-harakatlar bilan bevosita bog'liq, shuning uchun huquqshunos yuqori darajadagi professional o'zini-o'zi anglashi va o'z qarorlarining oqibatlarini oldindan anglash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Kasbiy o'zini-o'zi anglash faoliyatning mazmunini belgilaydi, chunki u faoliyatni amalga oshirish va kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorlik ko'rsatkichidir.

Adabiyotlarda, huquqiy ong huquqiy voqelikni aks ettiruvchi va xulq-atvorni tartibga solishda ishtirok etuvchi kasbiy o'z-o'zini anglash turi sifatida qaraladi. Masalan: Jinoyat huquqi fanidan, "Shahsning hayoti va sog'ligiga qarshi jinoyatlar" mavzusida, odam o'lishiga olib kelgan qilmishni to'g'ri malakalash uchun, aybdorning jinoyat sodir etishga undagan motiv va maqsadi, uning hatti-harakati, jinoyat sodir etish usuli, jinoyat sodir qilganidan keying hatti-harakatlari, shuningdek, aybdorning qilmishga bo'lgan munosabati kabilarni (yani ob'ektiv va sub'ektiv tomlarni) aniqlash orqali qilmishni qasddan odam o'ldirish, yoki qasddan badanga o'ta og'ir tan jarohati etkazish, yoki ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish deb malakalash mumkin bo'ladi. Yana bir misol: "O'zganing mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar" mavzusida, o'g'rlk, talonchilik va bosqinchilik kabi jinoyatlarda ham, ushbu jinoyatlarni bir-biridan farqlash hamda, aybdorning qilmishiga qonuniy baho berishda uning natti-harakatlari, jinoyatni sodir etish usuli, qilmishga bo'lgan shahsiy munosabatini aniqlanish lozim.

Bunda, talabalarning huquqiy ongi muhim ahamiyatga ega bo'lib, kasbiy o'z-o'zini anglash turi sifatida huquqni ijtimoiy voqelikning o'ziga xos hodisasi sifatida anglash, huquqiy normalarni to'g'ri qo'llay olisini ko'rsatadi. Huquqiy ong sub'ekt tomonidan turli xil yuridik ahamiyatga ega bo'lgan modellar va kasbiy xatti-harakatlar yo'llarini tekshirish va qayta tekshirishning aqliy va hissiy eksperimenti bilan ifodalanadi. Auditoriya dars mashgulotlarida vaziyatli slaydlardan,

syujetli videoroliklardan foydalanib voqelikni ko'rsatish orgali talabalarga huquqiy echim topish vazifasini berish bilan ularni jarayonga kiritirish ta'minlanadi. Ya'ni talaba dars mashg'ulotining ob'ekti emas sub'ekti sifatida ishtirok etadi. Tasavvur qiladi va shahsiy dunyoqarashi va huquqiy ongiga tayanib o'z munosabatini bildiradi. Bunda talaba nafaqat vaziyatni baholovchi, balki jinoyat subektining ruhiy emotsional holatini his qila olishi lozim bo'ladi. Talabalarga taqdim etilayotgan vaziyatli masalalarda test va glossariy-huquqiy atamalar muhim o'rin egallaydi. Huquqiy normalarda ko'zda tutilgan dispozitsiyani tog'ri tushunish va sodir bo'lgan vaziyatni huquqiy tahlil qila olish kasbiy mahoratni oshishga olib keladi. Shuningdek, vaziyatli masaslarni tahlil qilishda talabalar o'zlarini tergovchi, sud'ya, prokuror, advokat sifatida his qilishlari uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarda rollarni erkin tanlab olish yo'li bilan voqelikni jonlantirish orqali amaliy mashqulotlar o'tish talabaning qiziqishini oshirishda ijobiy samara bermoqda.

Ong va faoliyatning birligi tamoyiliga muvofiq, huquqiy ong va kasbiy o'z-o'zini anglashni aniqlash mumkin, bu esa bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy o'zini-o'zi anglash tarkibidagi ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini beradi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, yuqori kurslardan boshlab talabalarni ularni individual harakteri va qiziqishidan kelib chiqib tegishli huquq sohalariga yo'naltirish lozim deb hisoblaymiz. Chunki har ganday talaba ham tergovchi, sud'ya, prokuror bo'la olmasligi, yoki davlat boshqaruvida ishlay olmasligi mumkin. Bu ularning individual harakteri, huquqiy ongi, o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq, vaziyatga tezkor va tog'ri baho bera olish qobiliyatidandan kelib chiqadi.

Yuridik fakultetlar o'quv dasturi o'quv fanlari mazmunini integratsiyalashuvi talabalarning kasbiy o'zini-o'zi anglashning quyi tuzilmalarini rivojlantirish uchun amalga oshiriladi. Jumladan:

Yurisprudensiyaga inson faoliyatining alohida sohasi sifatida turli huquq faoliyati yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan bir qator umumiy talablarni qo'yiladi. Masalan: -ishning xususiyatlari (hissiy zo'riqish, kuch ishlatish, xavfli vaziyatlarning mavjudligi, kasbiy xatolar uchun ijtimoiy mas'uliyatni oshirish); -faoliyat ob'ekti (shaxslararo, ijtimoiy, xalqaro munosabatlar); - faoliyatning xususiyatlari (huquqni qo'llash vazifalarining xilma-xilligi va mos ravishda yuridik kasblarning har xil turlari); -faoliyatning mazmuni (yuridik yordam ko'rsatish) kabilar.

O'qish jarayonida bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy o'zini-o'zi anglashini shakllantirish, uning strategiyasiga aylanadi; inson psixikasining o'ziga xos hodisasi sifatida u kasbga qo'yiladigan talablarni, kasbiy qobiliyatlarini va kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida o'ziga nisbatan hissiy munosabatini bilish asosida kasbiy sohadagi harakatlarini boshqarishni belgilaydi.

Kasbiy o'z-o'zini anglashning mohiyati uning tabiati bilan ifodalanadi, bu bizga uni alohida vaziyatdan kasbiy ta'lim (o'zini-o'zi bilish, hissiy-qadriyat, o'ziga nisbatan munosabat, o'z-o'zini

tartibga solish) gacha o'zini bilvosita bilishning murakkab jarayoni shaklida ko'rib chiqishga imkon beradi. Kasbiy o'zini-o'zi anglashni shakllantirish kasbga qo'yiladigan talablarni tushunishga, o'zini kasbga bog'lashga, o'zini-o'zi qadrlashga va ushbu talablarga mos keladigan o'zini-o'zi nazorat qilishga yordam beradigan, maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar sharoitida shakllantirilishi kerak. Lekin ushbu faoliyatni o'rgatuvchi: - ijtimoiy psixologiya, shaxsiy psixologiya, mantiq kabi fanlar yuridik fakultetlarda deyarli o'qitilmayapti, yani o'quv rejasiga kiritilmagan.

Kasbiy o'zini-o'zi anglash kasbiy tayyorgarlik mazmunini o'zlashtirish jarayonida shakllanadi va u kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv fanlari majmuini ifodalaydi. Ularning rivojlanishi esa, maqsadga etish, bo'lajak huquqshunosning individual faoliyat uslubini rivojlantirish sharti bo'lgan kasbiy o'zini-o'zi anglashga asoslanada. Hukosa qilib aytganda, kasbiy o'zini-o'zi anglash huquqiy madaniyatning yuksalishi bilan, kasbiy mahorat esa unug huquqiy ongi bilan belgilanadigan o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Shuningdek, talabalarning kasbiy tayyorlash samaradorligi ularning kasbiy o'zini-o'zi anglashini shakllantirish bilan belgilanadi, bu esa ularni axborot manbalari va axborotni o'zlashtirish vositalari orqali maqsadli ravishda integratsiyalashgan bilimlarni olish orqali ta'minlanadi.

Bizningcha, huquqshunoslik fakultetlarda mantiq, shahs psixologiyasi va ijtimoiy psihologiya fanlarini tanlov fanlar qatorida o'quv rejasiga kiritish zarur. Shunda, ta'lim fanlari yig'indisi o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini-o'zi tahlil qilish, o'zini-o'zi nazorat qilish (o'zini-o'zi anglash) ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi; qiyin vaziyatlarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari (o'z-o'ziga munosabat); qiyinchiliklarni bartaraf etish ko'nikmalari va kasbiy vazifalarni amalga oshirish qobiliyati (o'zini tutish) kabilarni to'liq qamrab oladi.

Bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy o'zini-o'zi anglash tizimini shakllantirish: tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, kontekstli, interaktiv, madaniy uslubiy yondashuvni talab qiladi. Shakllantiruvchi eksperiment materiallariga asoslanib, bo'lajak huquqshunoslar huquqiy muammolarni har tomonlama ko'rib chiqish va ularni hal qilish yo'llarini asoslash uchun ma'lumotlarni sinchkovlik bilan tanlash qobiliyatini, talabalarni simulyatsiya usullaridan foydalangan holda o'zini-o'zi baholashi talabalarning refleksiv qobiliyatini, mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa professional o'zini-o'zi anglashning ta'sirchan va xulq-atvor tarkibiy qismlarining rivojlanishidan dalolat beradi.

Mamlakatning raqobatbardoshligi, tobora ortib borayotgan inson omili, har bir insonning tez o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslasha olish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Yangi davr ta'limga innovatsion talablarni qo'ydi, bu an'anaviy tizimdan sezilarli darajada farq qilishi kerak.

Oliy ta'lim ommabopligining tez o'sishi va ijtimoiy-madaniy soha uchun kadrlar tayyorlaydigan fakultetlarning nufuzi oliy ta'lim sifatining va ayniqsa, mutaxassisning

shaxsiyatiga qo'yiladigan talablarning oshishiga olib keladi. Ma'lum bo'lishicha, huquqshunos kadrlarni tayyorlash doimo e'tiborda va davlat vazifasi bo'lib kelgan, chunki aynan shu kadrlar orqali davlat boshqaruv korpusi yaratilgan. Shuningdek, davlat hokimiyati organlari, sud-huquq tizimi va adliya organlari uchun universitet ta'limi doirasida mansabdor shaxslarni tayyorlashni ixtisoslashtirishga e'tibor qaratish lozim.

Aniqlanishicha, ko'pchilik tadqiqotchilar huquqiy ta'lim sifatining samarali tavsifiga kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlik yuzasidan murojaat qilishadi. Biroq, agar huquqshunos ma'lum axloqiy qadriyatlarga (professional) rioya qilsa, huquqiy me'yorlarga nisbatan aniq pozitsiyani ko'rsatsa, professional o'zini-o'zi anglash muvaffaqiyatli deyishimiz mumkin, bu esa uning kasbiy ongi darajasi - insonning professional sifatida o'zini-o'zi rivojlantirishi mexanizm bilan bog'liqdir.

Kasbiy ong shaxsiy rivojlanishdan ajralib turadigan mustaqil rivojlanish yo'liga ega emasligi sababli, talabalarni yuridik faoliyatga kasbiy tayyorlash davrida maxsus sharoitlar yaratish kerak, bu esa ularning mutaxassisligi bo'yicha talabga muvofiqligi, soha bo'yuch bilimni, huquqiy madaniyatni jamiyatga etkazishi, kelgusi faoliyatida amalda qo'llay olishini aniqlashga yordam beradi.

Bo'lajak huquqshunoslarni kasbiy tayyorlash, kasbiy o'z-o'zini anglashni shakllantirish maxsus fanlar bo'yicha o'qitish orqali sodir bo'ladi. Biz asosiy fanlar va maxsus kurslar asosida uslubiy majmualarni (didaktik tizimlarni) loyihalashda kompleks yondashuv zarur deb hisoblaymiz. Seminar va amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida mavzularni amaliyot bilan bog'lashga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim.

Huquqshunosning kasbiy faoliyati murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u turli vazifalarni va kasbiy harakatlarni huquqiy tartibga solishni yuqori hissiy taranglik va maxsus vakolatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Huquqshunos faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy beqarorligi shaxsning psixologik resurslariga ta'sir qiladi, bu esa sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tushunishni, ularga munosabatni, o'z imkoniyatlarini baholashni, ularga ta'sir qilishni va unga moslashish zarurligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda: Kasbiy o'z-o'zini anglashni maqsadli shakllantirishga maxsus va asosiy fanlar majmuasini o'zida mujassam etgan tizim yordam beradi, chunki u bo'lajak mutaxassisga qonun nuqtai nazaridan davlatda sodir bo'layotgan huquqiy jarayonlarni to'g'ri sharhlashga yo'l ochadi. Kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan tarkibni rivojlantirishga: huquqiy faoliyatni tushunishga; muammoli vaziyatlarni tahlil qilish; shaxsiy tajriba hosil qilishga sharoit yaratadigan bahslar va muhokamalar yordam beradi.

Talabalar - bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy o'zini-o'zi anglash darajasi ularning muvaffaqiyatli professional o'zini-o'zi anglashning zaruriy shartidir.

Talabalar - bo'lajak huquqshunoslarning kasbiy o'zini-o'zi anglash muammosini hal qilish kasbiy ta'limni rivojlantirishga ma'lum darajada hissa qo'shadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yuridik fakultetlarda tanlov fanlari qatorida mantiq, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi kabi fanlarni tanlov fanlari qatorida oquv rejasiga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5987-sonli Farmoni. 2020-yil 29-aprel.
2. Kudryavtsev I. B. Классификация, структура и функции правового сознания. Журнал правовых исследований 8-том. 2021.08.30.
3. Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar nomzodi.)
4. Прист С. Теории сознания / С. Прист; пер. с англ. А.Ф. Грязнова – М.: Идея - Пресс, 2000. – 288с.
5. Холтон Дж. Тематический анализ науки / Дж. Холтон. – М.: Прогресс, 1981. – 384 с.
6. Белобородов А.Г. Образ права как смысловой уровень правового сознания: автореф. дис. канд. психолог, наук: 19.00.06 / А.Г. Белобородов; Академия управ. МВД России.– М.: 1996. – 24с.
7. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Л.С. Выготский. – М.: Педагогика – пресс, 1996. – 534с
8. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность / А.Н. Леонтьев. – М.: Политиздат, 1977. – 304с.
9. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии / С.Л.Рубинштейн. – СПб.: Питер, 2002. – 720с.
10. Акопов Г.В. Социальная психология образования: учебное пособие / Г.В. Акопов.– Самара, 1996. – 245 с.
11. Голощапова К.В. Формирование правового сознания средствами психологического тренинга. Екатеринбург 2018. -96 с.